OILADA FARZAND TARBIYASIDA GLOBALLASHUVNING TA'SIRI VA UNING OQIBATLARI

Tuychibaeva Maxbuba Pattaxonovna
Namangan viloyati Uchqurg'on tuman 1- son kasb-hunar maktabi YoBIBDO'

Annotatsiya

Oila jamiyat qo'rg'oni bo'lish bilan birga jamiyat va davlat uchun munosib fuqarolarni va mutaxassislarni yetkazib beradigan yacheykadir. Aynan, mana shu oila tushinchasi va unda farzand tarbiyasiga ta'sir qilayotgan globallashuvning salbiy va ijobiy tomonlari tahlil qilingan bo'lib, bunda milliy mentalitetimizning nechog'lik muhim ekanligi nazariy jihatdan ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: oila, jamiyat, davlat, vatan, tarbiya, ijtimoiy mexanizm.

Аннотация

Семья, наряду с тем, что является крепостью общества, является ячейкой, дающей достойных граждан и специалистов для общества и государства. Именно это представление о семье и негативные и позитивные стороны глобализации, влияющие на воспитание детей, проанализированы, теоретически показано значение нашего национального менталитета.

Ключевые слова: семья, общество, государство, Родина, воспитание, социальный механизм.

Annotation

The family, along with being the fortress of society, is a cell that provides worthy citizens and specialists for society and the state. It is this idea of the family and the negative and positive aspects of globalization that affect the upbringing of children that are analyzed, the significance of our national mentality is theoretically shown.

Key words: family, society, state, motherland, upbringing, social mechanism.

Oila - bu muayyan ijtimoiy, axloqiy normalar, xulq-atvor, xatti-harakatlarning shakllari, er va xotin, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquq va majburiyatlar bilan tavsiflanadigan ijtimoiy institut.

Aslida oila qadriyatini asrash, oila institutini mustahkamlash va takomillashtirish hamma davrlarda ham dolzarbdir. Biroq bugungi globallashuv sharoitida oila va oilaviy tarbiya masalasi yanada dolzarblik kasb etmoqda.

Respublikamizda bugungi kunda 36 milliondan ziyod aholi bo'lsa – ularning 97 foizi oilalarda istiqomat qiladi. Hozirda respublikamizda 8 million 200 ming oila bor. Shuni alohida ta'kidlash joizki, oila bilan bog'liq 50 ga yaqin qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20 dan ortiq farmoni, qarori va farmoyishlari, hukumatning 70 dan ziyod qaror va farmoyishlari hayotga keng joriy etilmoqda. O'nlab davlat va nodavlat tashkilotlari, minglab soha mutaxassislarining mehnati ham aynan oilalar ma'naviy sog'lom, iqtisodiy baquvvat bo'lishini ta'minlashga qaratilgan.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoevning "Eng katta baxt, men buni ming marta qaytarishdan charchamayman – oilamiz tinch bo'lsin! Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa – vatan tinch bo'ladi, " degan ezgu so'zlari ham oila qadriyatining nechog'lik ustuvor ekanini anglatadi.

Shuningdek, Prezidentimizning 2020 yil 18 fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni jamiyat va oilalarda sog'lom, barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhitni, tinchlik, totuvlik va osoyishtalikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Oila insonni biologik ko‘paytirishning ijtimoiy mexanizmi bo‘lib, uning a’zolari umumiy hayot, o‘zaro axloqiy javobgarlik va o‘zaro yordam bilan bog‘langan er-xotinlar, ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi munosabatlarga asoslangan kichik guruhdir. Shundan kelib chiqqan holda oila turlari quydagilardan iborat:

- avtonomlashgan oila - o‘zini o‘zi ta’minlaydigan mustaqil oila;
- atomizatsiyalashgan oila – bu yangi tipdagi zamonaviy oila bo‘lib, odatda er va turmush qurmagan bolalardan iborat. Ular oilaviy nazoratdan holi va ko‘proq erkinliklarga ega bo‘lgan shaxslardan tashkil topadi. Bunday turdagi oilalarda har birining shaxsiy manfaatlari butun oilaning manfaatlaridan ko‘proq ahamiyatga ega;

Biologik - er-xotin va uning avlodlaridan tashkil topgan oila, ular odatda ikki avloddan iborat (ota-onalar va ularning farzandlari). Ular doimo birgalikda yashaydigan va umumiy uy xo‘jaligini yuritadigan katta oila hisoblanadi.

- oddiy va an’anaviy oilaviy munosabatlar shakllanadigan oila;
- geterogom oila - er va xotinlar turli xil ijtimoiy xususiyatlarga ega bo‘lgan oila (ijtimoiy kelib chiqishi, millati, irqi, dini va boshqalar);
- geteronom oila - iqtisodiy jihatdan o‘zini o‘zi ta’minlamaydigan oila;
- fuqarolik, shartnomaviy, qondosh oila- oila shakllaridan biri bo‘lib, ularni qondoshlik, birdamlik munosabatlari bog‘lab turadi;
- matriarxal oila –ijtimoiy tashkilotning qadmiy shakli bo‘lib, ibtidoiy jamoa tuzumi rivojlanishining dastlabki bosqichlarida rivojlangan. Bunda ayollarning oila, iqtisodiyot, ijtimoiy hayotdagi ustuvorligi bilan ajralib turadi.
- matrilokal oila- erning xotini oilasida yashaydigan oila tuzilish shakli;
- matritsentrik – ona (ayolning) oilaviy hayotda otasining cheklangan ishtiroki tufayli markaziy o‘rinni egallagan oila shakli;
- ko‘p avlodli (kengaytirilgan) oila - uch yoki undan ortiq avlodlar birga yashaydigan, umumiy oila tomonidan bog‘langan oilaning turi;
- to‘liq bo‘lmagan oila (nuklear oila) - er-xotinning biri yo‘q bo‘lgan oila;
- bir avlodli oila - farzandlari bo‘lmagan er-xotindan iborat oila;
- sheriklik oila - turmush o‘rtoqlarning o‘zaro tushunishi va har birining qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq vazifalarni ixtiyoriy ravishda taqsimlashga asoslangan zamonaviy oila turi;
- patriarxal oila - erkak oilaviy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotda asosiy rol o‘ynaydigan ijtimoiy tashkilot shakli;
- murakkab oila - bir nechta nuklear oilalari umumiy er yoki xotin orqali birlashganda oila turi;
- egalitar - oila a’zolarining har biri bir xil imtiyozlar, huquq va majburiyatlarga ega bo‘lgan oila turi.

Oila faoliyatining sohalari: reproduktiv, o‘quv, iqtisodiy, birlamchi ijtimoiy nazorat, ma’naviy aloqa, maqom sohasi (oila a’zolariga ma’lum bir ijtimoiy maqomni berish), bo‘sh vaqt, hissiy, jinsiy.

Oila vazifalari: biologik ko‘payish; yosh avlodni ijtimoiylashtirish; madaniyatni takrorlash; jismoniy salomatlikni saqlash, bolalarga g‘amxo‘rlik qilish, ta’lim-tarbiya; voyaga etmaganlar va nogironlarni iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash; xulq-atvorni axloqiy jihatdan tartibga solish; oila a’zolarining shaxsiy rivojlanishi; muayyan ijtimoiy maqomni ta’minlash va ijtimoiy tuzilmani takror ishlab chiqarish; bo‘sh vaqtni oqilona tashkil etish; shaxslarning hissiy barqarorligi; jinsiy nazorat.

Oila tarbiyasi insonning o‘z-o‘zidan ijtimoiylashuvining ajralmas qismidir. Uning natijalari quyidagicha aniqlanadi:

1. Oilaning ob’ektiv xususiyatlari (ma’lumot darajasi, ijtimoiy holati, moddiy sharoitlari).

https://wordlyknowledge.uz

2. Subektiv xususiyatlar:

- qadriyatlarga munosabat (ijtimoiy, ijtimoiylashmagan, ijtimoiy munosabatlarni yoqlaydigan);
- turmush tarzi;
- oila a'zolarining o'zaro munosabatlari;
- shaxsiy resurslar (oila tarkibi, oila a'zolarining sog'lig'i, shaxsiy manfaatlar) va boshqalar.

Oilaviy ta'lim maqsadlari turlicha bo'lib, ular ijtimoiy munosabatga mos kelmasligi mumkin. Ular ko'pincha instrumental bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- gigiena haqidagi bilimlari va malakalarini oshirish;
- aloqa madaniyati ko'nikmalarini rivojlantirish;
- jinsiy ta'lim, jismoniy, intellektual, ifodali, shaxsiy va individual qobiliyatlarni rivojlantirish;
- kasb ta'limi va boshqalar.

Oilaviy tarbiya uslubi avlodlar o'rtasidagi munosabatlar tabiati bilan belgilanadi va avtoritardan demokratikgacha bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, oila a'zolari ko'pincha turli xil uslublarni qo'llashadi: ba'zilari demokratik, ba'zilari esa ko'proq avtoritar.

Oilaviy tarbiya usullari: ishontirish, namuna, rag'batlantirish, jismoniy mashqlar, raqobat, majburlash.

Xulosa qilganda shuni aytish mumkinki, bugungi kunda oila turlari va shakllari ko'payib bormoqda. O'zbekistonda ham bunday oila turlarini uchratish mumkin. Mamlakatimizda an'anaviy oila shakli keng tarqalgan. Ammo, tashqi va ichki omillar ta'sirida turli ko'rinishdagi oila shakllari ham rivojlanmoqda.

Buning asosiy sababi, insoniy va ijtimoiy munosabatlar transformatsiyasi yuz bermoqda. Bundan tashqari, oilaviy munosabatlarga globallashuv jarayonlari, davlat siyosati, iqtisodiyot ham jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ba'zi hollarda oiladagi mavjud qiyinchiliklar farzand tarbiyasiga turli darajada salbiy ta'siri oshib bormoqda, uning dunyoqarashini noto'g'ri shakllanishiga ta'sir qilmoqda

WORDLY KNOWLEDGE